

TARJIMA SOHASIDA BADIY VA ILMIY TARJIMANING AHAMIYATI VA ULARNING ASOSIY XUSUSIYATLARI

Fayzullayeva Nodira

Shahrisabz Davlat Pedagogika instituti

Filologiya fakulteti 2-kurs talabasi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.16090004>

Annotatsiya: Ushbu maqolada qadim xalqlarimizdan buyon saqlanib, rivojlanib va hozir ham o'z o'rniga ega bo'lgan soha – "Tarjima" yo'nalishiga qaratilgan. Tarjima nima va nima uchun zarur, uning hozirgi kunda dolzarbligi, tarjima sohasida badiiy va ilmiy tarjima yo'nalishining o'rne, tarjimaning ahamiyati, tarjimon kim va unda qanday hislatlar rivojlangan bo'lishi zarurligi, tarjimonlik nima, tarjimonlik yuzaga kelishi, badiiy va ilmiy tarjima nimaligi, badiiy va ilmiy tarjimaning asosiy xususiyatlari, badiiy va ilmiy tarjimaning umumiy va farqli tomonlari va bu jihatlar nima uchun zarurligi haqida ma'lumotlar keltirilgan.

Annotation:

This article focuses on the field of translation, which has been preserved and developed since ancient times by our ancestors and still holds an important place today. It provides information on what translation is and why it is necessary, its current relevance, the role of literary and scientific translation within the field, the importance of translation, who a translator is and what qualities they should possess. The article also explores what translation and interpreting mean, how the profession of translating emerged, what literary and scientific translation are, the main features of both types, their common and differing aspects, and why understanding these characteristics is important.

Аннотация:

В данной статье рассматривается область перевода, которая сохранялась и развивалась с древнейших времён нашими предками и до сих пор занимает важное место. Приводится информация о том, что такое перевод и зачем он необходим, его актуальность в современном мире, роль художественного и научного перевода в данной сфере, значение перевода, кто такой переводчик и какими качествами он должен обладать. Также рассматриваются понятия перевода и переводческой деятельности, история возникновения профессии переводчика, что такое художественный и научный перевод, основные особенности этих видов перевода, их общие и отличительные черты, а также значимость этих различий.

Kalit so'zlar: Tarjima, tarjimon, badiiy tarjima, ilmiy tarjima, tarjimonlik, tarjima madaniyati, chop etish, muallif uslubi, so'z boyligi va tushunarlilik.

Keywords: translation, translator, literary translation, scientific translation, translation practice, translation culture, publishing, author's style, vocabulary and clarity.

Ключевые слова: перевод, переводчик, художественный перевод, научный перевод, переводческая деятельность, культура перевода, публикация, авторский стиль, словарный запас и ясность.

Kirish: Insoniyat paydo bo'lgan davrdan boshlab qo'shni xalqlar madaniyati, turmush-tarzi, iqtisodiyoti, urf-odatlar va shu kabi boshqa jarayonlarni bilishga intilgan. Bu intilish insonlar o'rtasidagi ilm yo'lini ochib beruvchi bir kalit bo'ldi desak adashmaymiz. Ularning bu qiziqishi "Tarjimonlik" sohasini vujudga keltirdi va bu yo'nalish hozirda ham mavjud, o'z

o'rniga ega keng ko'lamli soha hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyev ta'kidlaganidek: "ilm-fan, ta'lim va tarbiya, ma'naviyat biz uchun ustuvor masaladir. Albatta, Yangi O'zbekistonni, Uchinchi Renessans poydevorini barpo etish uchun, avvalo, uning mustahkam iqtisodiy, moddiy-texnik asoslarini yaratish kerak" Davlat rahbari: "Biz O'zbekistonda "Adabiy do'stlik – abadiy do'stlik" degan chuqur ma'noli tamoyilga amal qilgan holda, jahon adabiyotining durdona asarlarini o'zbek tiliga tarjima qilish va nashr etish masalasiga g'oyat jiddiy e'tibor qaratmoqdamiz. "Yurtimizda dunyo adabiyotining bebaho mulki bo'lgan ming minglab asarlar tarjima qilinib, kitobxonlar qalbidan joy olgani, badiiy tarjima va tarjimashunoslik bo'yicha o'ziga xos ijodiy maktab shakllanganini alohida ta'kidlash lozim"

Tarjima — bu bir tilga tegishli matn, so'z yoki nutqni boshqa bir tilda ma'no jihatdan to'g'ri va aniq ifoda qilish jarayonidir. Tarjima ikki til o'rtasida aloqa vositasi bo'lib xizmat qiladi va madaniyatlar, bilimlar, adabiyotlar almashinuvini ta'minlaydi. Tarjima qilishda eng katta muammo madaniyatlar o'rtasidagi farqlarni ajratishdir. Muayyan madaniyatga mansub aholi biror narsaga o'z dunyoqarashidan kelib chiqib qaraydi. Bir-biriga ekvivalentdek ko'rinadigan so'zlar aslida ekvivalent bo'lmasliklari mumkin. Masalan, "cho'chqa" so'zi o'zbek tilida ma'lum darajada salbiy bo'yoqqa ega. Ammo "pig" Amerikada bu so'z neytral ma'noda qo'llanadi. Bunday holatlarda tarjimonning mahorati namoyon bo'ladi. Tarjimon — bu bir tildagi ma'lumotni boshqa bir tilga to'g'ri va aniq tarjima qiladigan shaxsdir. Tarjimonlar ikki yoki undan ortiq tillarni yaxshi biladi va ular madaniyati tafovutlarni ham hisobga olib, muloqotni osonlashtirib beradi. Har bir masala ham misollar orqali tez va oson izlanuvchiga yetib boradi. Tarjima insoniyat madaniy taraqqiyotida muhim vosita hisoblanadi. U til orqali bilim, madaniyat, adabiyot va fan yutuqlarini bir jamiyatdan boshqasiga yetkazadi. Tarjimaning ko'plab turlari mavjud bo'lib, ularning eng asosiylari "Badiiy va ilmiy tarjima"dir. Badiiy tarjima — bu adabiy asarlarni (roman, hikoya, she'r, drama va hokazo) bir tildan boshqa tilga tarjima qilish jarayonidir. Bu tarjima turi faqat so'zlarni emas, asar ruhini, uslubini, obrazlarni va hissiyotlarni ham iloji boricha saqlab qolishga harakat qiladigan tarjima turi hisoblanadi. Masalan:Abdulla Qodiriyning "O'tgan kunlar" romanidagi "Shuhrat yurakka yetmaydi, yurak bo'sh bo'lsa" degan jumlaning ingliz tiliga tarjima qilganda shunchaki "Fame does not reach the heart if the heart is empty" deb emas, balki badiiy va chuqur ma'no beruvchi uslubda — "Glory cannot touch an empty heart" kabi tarjima qilish maqsadga muvofiq bo'ladi ; So'z bir insonga qaratilgan bo'lsa ham ular orasida hissiy bo'yoqda farq bo'ladi, ya'ni "father", "daddy", "dad", "pop" so'zlari leksik birliklar, ularning barchasi oldingi avloddan bo'lgan qarindosh kishini ifodalaydi. "Ota" -. "father" so'zi hunnatni "adajon" - "daddy" - yaqinlikni ifodalaydi. Insonlar ko'pincha so'zlarni denotativ ma'nosiga e'tibor berib qolmay, ularni hissiy bo'yoqdorligiga ham qarash muhim ahamiyatga egadir.

Badiiy tarjimaning yuqorida keltirilgan misollar doirasidan kelib chiqqan xolda quyida asosiy jihatlarni keltirishimiz mumkin:

1. Asl matnga sodiqlik – Tarjima asar mazmunan asl matnga yaqin bo'lishi kerak.
2. Ijodiy yondashuv – Tarjimon badiiy ifodalarni o'zbek tilida tabiiy va ta'sirli tarzda qayta yaratishi lozim.
3. Badiylikni saqlash – Asarning go'zalligi, obrazlar, tasvirlar, badiiy uslub tarjimada ham aks etishi zarur.

4. Muallif uslubini yetkazish – Muallifning o‘ziga xos yozuv uslubi, ohang va kayfiyati saqlanadi.

5. Til boyligidan foydalanish – Tarjimon o‘z tilining boy imkoniyatlaridan foydalangan holda asarni badiiy jihatdan boyitadi.

6. Madaniy moslik – Madaniy realiyalar, urf-odatlar, milliy tushunchalar to‘g‘ri va tushunarli tarzda tarjima qilinadi.

7. Obraz va ramzlarning to‘g‘ri talqini – Asarda uchraydigan ramz, timsol va metaforalar ma‘no jihatidan buzilmay tarjima qilinadi.

8. Kontekstga moslik – Har bir so‘z, ibora yoki jumla kontekstda qanday ma‘no berayotganiga qarab tarjima qilinadi.

9. Hissiy ta‘sirni saqlash – Asarning o‘quvchiga yetkazmoqchi bo‘lgan hissiy ta‘siri tarjimada ham aks etadi.

10. O‘quvchi uchun oson qabul qilish – Tarjima tili tushunarli, ravon, o‘qishga yengil bo‘lishi kerak, lekin asarning badiiyligi yo‘qolmasligi lozim.

Ilmiy tarjima – bu ilmiy matnlarni bir tildan boshqa tilga tarjima qilish jarayoni bo‘lib, u fanning turli sohalaridagi bilimlarni boshqa madaniyat yoki tilda tushunarli shaklda yetkazib berishga qaratilgan. Bu tarjima turi nafaqat matnning tilini o‘zgartirishni, balki ilmiy tushunchalar, maqolalar, darsliklar, managrafiyalar, terminlar va izohlarning to‘g‘ri va aniq ifodalanishini ham talab qiladi. V.P. Danilenkoning ta’kidlashicha, ilmiy tarjima deganda umumadabiy tilningmustaqil funksional turi, ya’ni an’anaviy fan tili (fan, ilm yoki texnika tili) nazarda tutiladi. Masalan: "In photosynthesis, plants convert light energy into chemical energy" — jumlasini o‘zbek tiliga quyidagicha tarjima qilinadi:

“Fotosintez jarayonida o‘simliklar yorug‘lik energiyasini kimyoviy energiyaga aylantiradi”.

Bu tarjimada har bir ilmiy atama (fotosintez, energiya, kimyoviy) to‘g‘ri va sodda ifodalangan. Ilmiy tarjimaning asosiy xususiyatlari:

1. Aniqlik – Har bir atama va jumla ilmiy nuqtayi nazardan aniq tarjima qilinadi, chalkashlikka yo‘l qo‘yilmaydi.

2. Terminlarga sodiqlik – Ilmiy terminlar qat’iy belgilangan shaklda tarjima qilinadi, ularni o‘zgartirish yoki erkin almashtirish mumkin emas.

3. Mantiqiy izchillik – Matnning tuzilishi mantiqiy va izchil bo‘lishi kerak. Fikrlar bir-biri bilan bog‘langan bo‘lishi zarur.

4. Ob’ektivlik – Tarjimon o‘z fikrini qo‘shmasligi, faqat muallif fikrini aniq yetkazishi lozim.

5. Rasmiy-ilmiy uslubda tarjima – Matn rasmiy, xolis, dalillarga asoslangan uslubda tarjima qilinadi.

6. Qisqa va lo‘nda ifodalar – Ortiqcha badiiylilik yoki hissiylikdan qochiladi. Fikrlar qisqa va tushunarli bo‘ladi.

7. Matn strukturasi saqlanadi – Bo‘limlar, sarlavhalar, formulalar, jadvallar va boshqa tuzilmalar asl matndagidek saqlanadi.

8. Manbaalarga hurmat – Tarjimada manbaalar to‘g‘ri ko‘rsatiladi, iqtiboslar aniq tarjima qilinadi.

9. Fan sohasiga mos yondashuv – Har bir fan sohasi o‘ziga xos termin va ifodalarga ega, tarjima aynan shu sohaga mos bo‘lishi kerak.

10. Tushunarlilik – Tarjima matni o'quvchi uchun tushunarli va o'qishga qulay bo'lishi kerak.

Yuqorida keltirilgan xususiyatlar ularning alohida jihatlaridan hisoblanadi va shu xususiyatlariga nisbatan farqlanadi. bundan tashqari badiiy va ilmiy tarjimaning o'xshash va farqli tomonlari bor. Ikkala tarjima uslubining o'xshash jihatlari: Asliyatga sodiqlik – har ikkala tarjima turi ham asl matnning mazmuniga sodiq bo'lishni talab qiladi; Til kompetensiyasi zarur – tarjimon har ikkala tilni – manba va maqsad tilini – mukammal bilishi kerak; Madaniyatlararo tafakkur – Matnni tarjima qilishda ikki xil madaniyatni hisobga olish zarur; Mantiqiylik va tushunarlilik – Har ikkala tarjimada ham mantiqiy izchillik va tushunarlilik muhim o'rin tutadi; Tarjimon mas'uliyati – Tarjimon har doim aniq, halol va mas'uliyatli ishlashi kerak; Konseptual anglash – Tarjima qilishdan avval matnning mazmunini chuqur tushunish talab etiladi; Konnotatsiyani hisobga olish – So'zlarning qo'shimcha ma'nolari va ohanglari e'tiborga olinadi (ayniqsa badiiy tarjimada muhim, ammo ilmiy tarjimada ham noaniqlikni oldini olish uchun zarur); Kontekstga mos tarjima – So'z yoki ibora tarjimasi kontekstga qarab tanlanadi; Tahrir va tekshiruv zarurati – Har ikki holatda ham tarjima qilingan matnni qayta ko'rib chiqish va tahrirlash lozim; Professional mahorat – Tarjimon nafaqat til bilimiga, balki tarjima metodikasi, uslublari va tajribaga ega bo'lishi kerak.

Badiiy va ilmiy tarjima turlarining farqli jihatlari:

1. Maqsad: Badiiy tarjima: Asarning badiiy go'zalligini, hissiy jihatini va estetik ta'sirini yetkazish. Ilmiy tarjima: Ilmiy ma'lumotni aniq, tushunarli va lo'nda shaklda yetkazish.

2. Til uslubi: Badiiy: Obrazli, metaforik, hissiy jihatdan boy. Ilmiy: Rasmiy, qat'iy, aniq va lo'nda.

3. Ijodkorlik darajasi: Badiiy: Tarjimon ijodkorlik qiladi, ba'zida erkin yondashadi. Ilmiy: Tarjimon erkinlikdan voz kechadi, faqat ma'lumotni to'g'ri yetkazadi.

4. Terminlardan foydalanish: Badiiy: Maxsus terminlar kam qo'llaniladi. Ilmiy: Ko'plab ilmiy va texnik terminlar ishlatiladi.

5. Matnni qayta yaratish: Badiiy: Tarjimon ba'zida asarni ijodiy qayta yaratadi. Ilmiy: Asar aynan va aniq tarjima qilinadi, qayta yaratishga yo'l qo'yilmaydi.

6. Tinglovchi/o'quvchi auditoriyasi: Badiiy: Umumiy kitobxonlar, keng omma. Ilmiy: Maxsus soha vakillari, ilmiy jamoa.

7. Xatolarga munosabat: Badiiy: Ba'zan kichik og'ishlarga yo'l qo'yiladi. Ilmiy: Har qanday xato jiddiy ilmiy xatoga olib kelishi mumkin.

8. Tarjimaning ta'siri: Badiiy: Hissiyot uyg'otish, zavq bag'ishlash. Ilmiy: Axborotni tushunarli yetkazish, ilmiy bilimni yoyish.

9. Matnning tuzilmasi: Badiiy: Erkin va xilma-xil tuzilgan bo'lishi mumkin. Ilmiy: Aniq tuzilma, tartib, sarlavhalar va izchil mantiq bo'lishi zarur.

10. Tayyorlov darajasi: Badiiy: Adabiyot, uslub va estetik didga ega bo'lish kerak. Ilmiy: Soha terminologiyasi va mavzuga oid maxsus bilim zarur.

Xulosa: Yuqorida keltirilgan ma'lumotlardan shuni aytishimiz mumkinki, tarjimonlik sohasi qadimdan paydo bo'lgan va hozirda keng rivojlanmoqda, bu soha insoniyat manfaatlari uchun xizmat qiladi. Uning ham turlari bor ular ichida badiiy va ilmiy tarjima alohida ahamiyatga ega. Badiiy matnda qo'llangan badiiy boyoqdorlikni kasb etgan so'z va so'zlar jamlanmasini tarjima qilishda asliyat matnida ifodalangan ma'no va mohiyatni imkon qadar

yaxshi tasavvur ettira olish lozim. Bundan tashqari tarjimondan asliyat va tarjima tillarining strukturasi jihatidan ham yetarlicha bilimga ega bo'lish talab qilinadi. Badiiy stilistikani ifodalovchi til birliklarini tarjima qilishda ekvivalentlik, shakliy ekvivalentlik, sintaktik almashinuv, inversiya, madaniy ekvivalentlik kabi tarjima transformasiyalari faol qo'llanadi. Ilmiy tarjima turida esa ilmiylik saqlanishi bosh maqsad hisoblanadi.

References:

Используемая литература:

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Yoldosheva Mamura Baxtiyorovna, "Badiiy tarjimada portret tasvirining milliy-madaniy tasirining ifodalanishi". – Buxoro: 2023. – 207 – 211.
2. Yoldoshev U. Hajviy matnlar tarjimasining lingvostilistik va lingvokulturologik xususiyatlari (Ingliz tiliga tarjima qilingan ozbek xalq latifalari misolida). Filol.fan. nom. diss.avtoref. – Toshkent: 2017.- B.123-124.
3. Graedler, A.L. (2000). Cultural shock. Retrieved December 6, 2006 from <http://www.hf.uio.no/iba/nettkurs/translation/grammar/top7culture.html>
4. <https://fayllar.org/leksik-fonetik-sintaktik-vositalar-tayanch-sozlar.html>
5. <https://fayllar.org/mundarija-kirish-bob-tarjimaning-stilistik-muammolari.html?page=7>
6. <https://inlibrary.uz/index.php/media-language-culture/article/download/28869/29702/33243>